

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.Abdullayeva</b>	
XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi .....	324
<b>F.Temirov</b>	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
<b>I.Naimov</b>	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
<b>R.Rahimov</b>	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar .....	337
<b>D.A.Choriyeva</b>	
Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
<b>O.V.Mahmudov</b>	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya .....	353
<b>A.A.Hakimov, B.A.Usmanov</b>	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi .....	360
<b>N.X.Choriev</b>	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi .....	365

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>I.Yakubov</b>	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda .....	368
<b>P.Bakirov</b>	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani .....	373
<b>I.Mannopov</b>	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi .....	379
<b>Q.Yo'lchiyev</b>	
Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar .....	383
<b>J.Eshonqulov</b>	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati .....	388
<b>T.Matyobova</b>	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
<b>M.Qurbonaliyeva</b>	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili .....	399
<b>I.Eshonqulov</b>	
Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash .....	405
<b>H.Ne'matova</b>	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi .....	413
<b>X.A.Xaitov</b>	
O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi .....	417
<b>Samadi Nooria</b>	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari .....	421
<b>A.G.Sabirdinov</b>	
Shuhrat she'rlariga bir nazar .....	427
<b>S.Muminov, Z.Kamoliddinova</b>	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

#### TILSHUNOSLIK

<b>Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva</b>	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi .....	439
<b>Sh.A.Ganiyeva</b>	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari .....	443
<b>D.Yuldasheva, S.Nishonova</b>	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....	447
<b>M.Saminjonov</b>	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
<b>O.Latipov</b>	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini .....	454

## TUYG'U VA KECHINMANI KITOBXONGA "YUQTIRISH" MAHORATI

## НАВЫК «ПЕРЕДАЧИ» ЭМОЦИЙ И ОПЫТОВ ЧИТАТЕЛЮ

## THE SKILL OF "TRANSFERRING" EMOTIONS AND EXPERIENCES TO THE READER

Matyoqubova Tozagul<sup>1</sup><sup>1</sup> Matyoqubova Tozagul

– Alisher Navoiy nomidagi Tosh davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti, o'zbek adabiyoti tarixi kafedrasida dotsenti.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada akademik G'.G'ulomning lirik merosi o'rganilgan. Unda shoirning muayyan she'rlari misolida Bedil ijodiy me'rosining G'.G'ulom lirikasiga ta'siri tadqiq etilgan. G'.G'ulomning Bedilga murojaat qilishi sabablari shoir ijodidan keltirilgan misollar asosida tahlilga tortilgan. Tadqiqotchi "Bog", "Sog'inish", "Yangi ishq", "Chaman", "San'atim" va boshqa bir qator she'rlarini kuzatib, G'.G'ulomning inson aql quvvati ilohiy mohiyatga ega, singari bedilona xulosaga kelishi sabablarini izohlaydi.

Maqolada G'.G'ulom ijodidagi konseptual ahamiyatga molik bo'lgan dil izhorlari, poetik obrazlar bevosita Sharq adabiyoti an'analari, xususan, Bedil falsafiy qarashlari bilan bog'lanishi asoslab berilgan. Ilgari surilgan fikr-mulohazalar tadqiqotchi tomonidan muxtasar holda umumlashtirilgan.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается лирическое наследие академика Г. Гулама. В ней на примере отдельных стихотворений поэта исследуется влияние творчества Бедилы на лирику Г. Гулама. На основе примеров из творчества поэта анализируются причины обращения Г. Гулама к Бедиле. Вслед за своими стихотворениями «Сад», «Пропавший без вести», «Янги ишк», «Чаман», «Мое искусство» и рядом других стихотворений исследователь объясняет причины, по которым Г. Гулям пришел к выводу о том, что человеческий разум имеет божественную сущность.

В статье обосновывается, что концептуально важные языковые выражения и поэтические образы в творчестве Г. Гулама напрямую связаны с традициями восточной литературы, в частности, с философскими воззрениями Бедилы. Предыдущие комментарии были кратко резюмированы исследователем.

**Abstract**

This article examines the lyrical heritage of Academician G. Ghulam. In it, the impact of Bedil's creative work on G. Ghulam's lyrics is studied on the example of certain poems of the poet. The reasons for G. Ghulam's appeal to Bedil are analyzed on the basis of examples from the poet's work. Following his poems "Bog", "Sog'inish", "Yangi Ishq", "Chaman", "San'atim" and a number of other poems, the researcher explains the reasons why G. Ghulam came to the conclusion that the human mind has a divine essence.

In the article, it is justified that conceptually important language expressions and poetic images in G. Ghulam's work are directly connected with the traditions of Eastern literature, in particular, Bedil's philosophical views. The previous comments were briefly summarized by the researcher.

**Kalit so'zlar:** Poetik ifoda, gumanistik pafos, tuyg'u va kechinma, tabiat tasviri, lirik qahramon, badiiy obraz, she'r, misra, falsafiylik.

**Ключевые слова:** Поэтическое выражение, гуманистический пафос, чувство и переживание, описание природы, лирический герой, художественный образ, поэма, стих, философия.

**Key words:** Poetic expression, humanistic pathos, feeling and experience, description of nature, lyrical hero, artistic image, poem, verse, philosophy.

**KIRISH**

G'.G'ulom asarlarida ifodalangan inson va tabiat go'zalligi, qahramonlik, do'stlik, muhabbat, vafu va sadoqat tuyg'ulari kitobxon diliga kuchli estetik zavq ulashadi. Shoirning axloqiy tubanlik, zulm va zo'rlik, adolatsizlik, xudbinlik psixologiyasi oqibatlarini ko'rsatilgan asarlarida xunuklikning "vajohati" mahorat bilan aks etdi. Ularda xunuklikni inkor etish pafosi yetakchilik qildi. Bu tipdagi asarlar kitobxonni hayot haqida jiddiroq o'ylashga, fikrlashga muayyan hukm-xulosalar chiqarishga undadi. Shunday ekan, ular ulkan badiiy-estetik ta'sirchanligi, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-axloqiy ahamiyati bilan insonparvar g'oyalarni tasdiqlashga xizmat qildi.

Bizningcha, vorislik tushunchasi mavjud ekan, shoir she'rlarida kuzatiladigan mutafakkirona fikrlar G'.G'ulomgagina tegishli bo'lolmaydi. Chunki, shoir dunyoqarashi va uning poetik ifodasida ulug' ajdodlarimiz ma'naviy mulki, xususan Bedil falsafasiga xos belgi-sifatlar aks etgan. Mirzo

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Abdulqodir Bedil o'z asarlarida qadimgi yunon mutafakkirlari Pifagor, Aflotun, Arastu, Gippokrat, Demokrit, Epikurdan tortib, Jomiy, Sa'diy, Navoiygacha o'zlashtirgan edi. Alloma falsafiy idealida Arastu tabiiy-ilmiy qarashlari, Is'hoq al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Zakriyo ar-Roziy, Ibn Sino kabi mutafakkirlar an'anasi bilan tasavvuf ta'limotini yaqinlashtirishga harakat qilgan.

Demak, Bedil ajdodlar ma'naviy mulki irsiy kodini tashigan. G'.G'ulom esa, moddiyunchilikka mukkasidan ketgan o'z davri intilishlaridan qoniqmagani uchun Bedilga murojaat qilgan. Bu esa shoirning moddiy va ruhiy borliqni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Tabiat o'z mohiyatiga ko'ra ijodkordir. Har qanday o'zgarish ortida biror narsaning intihosiga bog'liq tarzda boshqa narsaning ibtidosi mujassam. Inson aql quvvati ilohiy mohiyatga ega singari bedilona to'xtamlarga kelishiga asos bo'lgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

I G'.G'ulom hayoti va ijodiy faoliyati XX asrning ikkinchi yarmidan to shu kungacha adabiyotshunoslar, ilm va ijod ahli diqqat-markazida bo'lib kelgan. O'zbek adabiyotshunosligida G'.G'ulom she'riyati S.Mamajonov [2], A.Akbarov [1], B.Nazarov [6], O.Sharafiddinov [6], B.Sarimsoqov [8] singari adabiyotshunoslar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. T.Matyobovning maqola va tadqiqotlarida shoirning badiiy mahorati, she'riyatidagi tuyg'ular tovlanishi muayyan darajada tahlil etilgan [5.40-43]. Ammo shoirning badiiy mahorati muayyan she'ri bilan bog'liq tarzda maxsus tadqiq etilgan tadqiqotlar unchalik ko'p emas. Biz ushbu o'rinda G'.G'ulom lirikasini o'rganish orqali poetik obraz yaratish mahorati, shoir she'riyatida tuyg'u-kechinma va ifodaning o'ziga xosligi haqida ayrim umumlashmalarimizni ilgari suramiz.

Jahon adabiyotshunosligida she'rshunoslik sohasida XX asr lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish, davrlashtirish, she'r shakli va mazmunida yuz bergan o'zgarishlar mohiyatini ko'rsatish singari ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda alohida ijodkor adabiy merosini qayta baholash, poetik o'ziga xosligini belgilashga bo'lgan intilish ortdi. Binobarin, XX asr adabiyotini o'rganish bo'yicha to'plangan ilmiy-nazariy fikr-qarash va amaliy tajribalar betakror iste'dod sohibi G'afur G'ulom she'riyatining poetik o'ziga xosliklarini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu maqolada qo'yilgan ilmiy muammo tadqiqiga muvofiq qiyosiy-tarixiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

G'.G'ulom lirik merosida ulug' shoir, faylasuf va mutafakkir, o'z davrida hind va forsdan: *"Mirzo malik-ush shuaro"*, o'zbek diyorida: *"Abulmaoniy"* (*"Ma'nolar otasi"*) — deya faxr bilan e'tirof etilgan Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721) ijodining ta'siri kattadir. Ma'lumki, Bedil ruhiy va moddiy borliq (*"vujudi vojib"* va *"vujudi mumkin"*) ni o'zaro uyg'un holda tushungan. May quvvatidan dilni xushnud etishni Allohni hamisha ko'ngil qa'rida yodda tutish, g'aflatu g'ofillikdan ogoh bo'lib, uning vasliga yetishish maqsadida ranj chekish, -deb tushungan. Tabiatni o'z mohiyatiga ko'ra *"ijodkor"*, – deb bilgan mutafakkir olamda sodir bo'layotgan barcha hodisalar va mavjud ashyolarni tabiiy jarayon sifatida anglagan. Uning nazarida har qanday o'zgarish – bu yo'q bo'lish emas, balki ruh haqiqati yashirin imkoniyatining zohir bo'lishidir. Boshqacharoq aytganda, biror bir narsa va hodisa (*ko'za*) ning intihosi ikkinchi bir narsa (*tuproq*) ning ibtidosidir. Demak, aslida, o'sha ko'za tuproqda yashirin imkoniyat tarzida mavjud bo'lgan.

G'.G'ulom: *"O'rik yerga gul to'kib, piston qadaydi"* [1.156], *"Oltin tuprog'ingda jumla olam bor, Dunyolar mazmuni mazmuniga zor"* [1.157], *"Dunyo aylanardi onam charxiday"* [1.175], *"Ey vohki, mangulik emasdir hayot"* [1.179] singari misralarni bitarkan, narsa-hodisalaridagi ruh – fikrning o'ziga xos timsoli ekaniga tayanib ish ko'radi. Jumladan, o'rikning gullashi bir holatdan ikkinchisiga ko'chish bo'lsa, gulning tuproqqa qo'shilishi esa, qisqa va fayzli umr jo'n yakuni bo'lmay, balki yaratiq (*o'rik guli*) ning g'uncha-gul-xazon bosqichlaridan keyingi yangi hayotidir. Shuning uchun ham, tuproq – oltin, oltinki o'zida turfa olamlarni mujassam eta oladi. Bizningcha, o'zga o'lchamlardagi o'sha dunyolar mazmunidan ogoh shoir buni kitobxonga ham uqtirmoqni tilaydi. Chamasi, dahri dunning qari ona charxiday aylanishi ashyolarning bir turdan ikkinchisiga ko'chib abadiy barhayotligi tabiiy jarayonligiga ishoradir. Demak, G'.G'ulom poetik tafakkur tarzida ham odam va olamni bedilona idrok etish ustuvordir.

Shubhasiz, G'.G'ulom: *"Dilga til, tilga ko'ngil, albatta jo'rovoz ekan"* ini anglagan [1.171]. Uning botinida bunday anglash jarayoni sodir bo'lmaganida, *dil-til-ko'ngil* triadasi birligi yuzaga

kelmas va ifoda teran mazmundan mahrum bo'lardi. Binobarin, shoir ongida fazolarga teng ufqlar ochilgani uchun u: *"Jigarimning bir porasi bo'lgan san'atim"* [1.172], degan aqidaga amal qilishga intilgan.

Anglashiladiki, G'.G'ulom she'riyati uning botnidan sizib, ehtimol shaloladay qaynab chiqqan *"jigarning bir porasi"*dir. Shuning uchun: *"san'atga baxshida umr"*, deyilganida tuyg'u kechinilgani, ifoda samimiyati va mazmun anglanganiga e'tibor qaratilib kelinadi. G'.G'ulom aksariyat hollarda inson sezgisi, fikr-xayoli va tafakkur-tasavvuri, ruhiy-hissiy imkonlari haqida so'zlaydi.

Shoir 1934 yilda yozgan *"Bog"* [131], she'rida *"Boda bar har tab' mebaxshad judo xosiyate"* (*"May har tab' egasiga alohida bir ta'sir ko'rsatadi"*) degan misrani keltiradi [132]. Bu orqali shoir bog'ning betakror tarovati va go'zalligi har bir insonga o'ziga xos ta'sir ko'rsatishini bedilona ifoda etadi.

She'rdagi *"Ko'z qarosiday ko'chirding yuzga bog'ning aksini, Xol kabi ishkom qoshin, bu husnini — bu ko'rkini"* [1.131] singari satrlarida u insonga in'om etilgan quvvatlar cheksiz bilish imkoniyatlari eshigini ochishiga ishora qilgan. Zotan, inson ham, bog'dagi har bir nihol ham Tangrining buyuk ijodi. Agar, yaratiqlar — oyna ekani, ularga *"ijodkor"* jamolining aksi ko'chgani eslansa, bog' — borliq bandasi ko'z qorachug'iyu yuzida jilvalanishi anglashimli bo'ladi. Zotan, ko'z javhari — ko'ngil oynasi, yuz esa uning zohiridir. Qachonki, ko'ngil ko'zguna pokiza bo'lsa, unda zot jilvasi akslanadi. Illo, moddiy ashyolar asl husn va ko'rk zuhuratlari. Binobarin, G'.G'ulom olam hodisalari mohiyatini bilishga jonli mushohada emas, balki yagona aql (*Tangri*) qodir ekanini teran tuygan. Shu bois, *"sharaflangan"* inson aql-tafakkuri imkonlariga ishongan, imon nurini aqldan deb bilgan.

Shoir garchi, aksariyat hollarda, zamon taqozosiga ko'ra: *ilohiy aql natijasi bo'lmish odamiy aql haqiqat javhariga ko'ngil ko'zguna orqali nazar tashlashi* zarurligini ifoda etolmagan bo'lsa ham, ilm va axloq biri ikkinchisini taqozo etuvchi yagona negizga ega, deb bilgan.

*Umrinda bir minut ham bo'sh payt ko'rmadim,  
O'tgan bo'lsin dardsiz, o'tsiz, sevgisiz,  
Ko'zim qorachig'ida tamg'alanganmi  
So'nmas sevgilardan jilvalar so'ngsiz* [1.133] ...

"Yangi ishq" nomli she'ridan keltirilgan ushbu misralarda G'.G'ulom o'z umrini sarhisob qilaroq, lahzalar qadrini dard va muhabbat otashiga oshnolik bilan o'lchaydi.

Bizningcha, ko'ngil oynasi (*ko'z qorachig'i*) ga tamg'alangan so'nmas va so'ngsiz sevgi jilvalari haqidagi iqrar asl javharda mujassam ilohiy mohiyatga ishoradir. Shuning uchun shoir lirik qahramoni o'z-o'zini taftish etarkan, foniy dunyo havaslariga ergashib, asl mazhardan yiroqlashgan onlariga bo'lgan tizginsiz nafratini yashira olmaydi. G'.G'ulom yolg'on dunyoga mehr qo'yish mudhish adashish ekaniga iqrar bo'lgan lirik qahramon qalb kechinmalarini poetik takrorlar vositasida yanada kuchaytiradi:

*Nega axir tez ergashdim, nega men senga,  
Daydi havas, sengagina bo'lsin nafratim...  
Bari yolg'on, bari yolg'on, barisi yolg'on...  
Hamma joyda o'sha mudhish haqiqiy yolg'on* [1.140].

Demak, G'.G'ulom yuqoridagi singari dilli o'rtangan, qalbi bezovtalangan vaziyat-hollarda Bedilga murojaat etishini vijdon va iymonni g'aflatdan qutqarishga intilish sifatida izohlamok lozim

Zotan, G'.G'ulomning Bedil qalamiga mansub *"may"* (*ma'rifat*) istagan ko'ngilning alohida tabi mavjudligi haqidagi misrasini keltirishi aslo tasodif emas. G'.G'ulom S. Abdulla g'azaliga taxmis bog'larkan: *"Kel ey quyosh, urishtir jahon piyolasini, Jahon piyolasi birla bu jon piyolasini... G'ulomiymen to'la nur mayg'a mehribon Sobir."* [1.198], degan satrlarni bitadi. Nuri mayga mehribon G'ulomiymening jon va jahon piyolasi jarangini uyg'un holda ko'rish tilagida mumtoz adabiyot tasavvufiy ruhi ufurib turadi. Bu o'rindagi Quyosh moddiy jism emas. G'ulomlik martabasida turgan bu xos qulning *nuri mayga to'la* ekani uning ma'rifati darajasiga ishoradir. Bu hol esa, so'fiyona mazmunga ko'ra botin oynasidan zohir pardasi ko'tarilganini anglatadi.

Ha, G'.G'ulom tug'ma donishmand shoir edi U haqli e'tirof etganiday: *"Bedilning she'riday falsafiy umr"* [1.197] kechirdi. Zotan, *"Olamning o'zi ham kattakon kitob, Falsafiy umrlar unda bir poya"* dir. [1.213]

Inson ruhining injeneri bo'lmish shoir tarix zarvaraqlarini uqib: *“Jaholat fikrni ming yil kuttirdi, Suqrotga falsafa zahar yuttirdi”* [1. 212] deya olis kechmishni zamonasiga qiyos qiladi. Darhaqiqat, nafaqat Suqrot, balki o'z eliga sig'magan Sino, ma'rifatu ziyoga tashna Ulug'bek ham nodonlik va jaholat qurbonlari emasmi. Bunday achchiq haqiqatlarni shoir o'tmish misolida, ba'zan tarixning inkori hisobiga aytsa ham, ishoraviy mazmunda o'z holidan so'z ochib, odamzod aqli durdonalaridan yupanch va ishonch tilagani ehtimoldan yiroq emas. Shu bois, to'liqlikdan donishmandona keksalik sari ingan sari uning o'ynoqi dilidan shaloladay oqqan nafis she'riy satrlar hatto jilg'alarga rang bera oldi.

Shoir millat mard o'g'lonlari jasoratini: *“Yurganda yer titrar, o'kirsa osmon”* [2.20] tarzida mubolag'ador ta'riflaganida ko'nglida mislsiz g'urur tuygani shubhasiz. *“Sen yetim emassan”* she'rida o'zganing sag'irini *“jigarim”*, *“qo'zim”* deb suygan, *“Minnating boshimga durra”* [2. 22], deya shirin so'z ila erkalagan ulug' qalb sohibi bu harorat, muhabbat va shafqatni otalik hissi va xalqimiz azaliy qadriyatlari – muazzam Sharqin insonparvar falsafasidan olgan. Go'dakning la'li labidagi g'uncha tabassum chechagi va nafis lablar shivirini shoirona qalbi bilan ilg'aganida, ko'nglida kurtak ochgan tizginsiz surur har so'zi yov betiga la'nat tamg'asi bo'lib bosilguvchi shoirning fashizmga bo'lgan nafratni-da yengishga qodir bo'lgan. Shuning uchun G'.G'ulom zulm kishanlari yanchilishiga nekbin ishonch bilan qaragan.

Shoir bir she'rida zo'r shijoat bilan: *“Xo'rlikka chidama, titra ey zamin, Shu mal'un lashkarni o'z qa'ringga yut”* [2. 31], deya qarddon tuproqqa xitob qiladi. Natijada, mutafakkir poetik tafakkuriga xos panteistik qarashda Tangri va olam tushunchalari aynanlik kasb etadi. *“Sog'inish”* she'rida: *“Eng kichik zarradan Yupitergacha, O'zing murabbiysan, xabar ber Quyosh”* [2. 31], satrlarini bitgan shoir dunyoqarashida esa, olam markazida Quyosh turishi bilan bog'liq geleotsentrizm (*N.Kopernik, G.Galiley, I.Nyuton*) nazariyasi ustuvorlik qiladi. Bizningcha, buni tabiiy hol sifatida qabul qilish va har bir bitik yaratilgan davrda G'.G'ulom fikr-o'yini band etgan qarashlar, taxayyul qanotlarining parvozi, ayni damga xos kayfiyat-holatlar bilan izohlash lozim. Qolaversa, G'.G'ulom bir she'rning o'zida turfa xil falsafiy qarashlarni umumlantirishga qodir yuksak eruditsiya sohibi edi. Shuning uchun o'sha manzumadayoq: *“Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas, Shunchalar mustahkam xonai xurshid”* satrlari bilan tezda bedilona ifodalarga erkin ko'chishni uddalay oladi. Hatto shu satrda ham Quyosh uyi (*xonai xurshid*) iborasidan voz kechilmaydiki, bu hol shoir poetik tafakkurida turfa qarashlar sintezi mujassamligini ko'rsatishi bilan xarakterlidir.

Muhimi, shoir jo'n falsafa so'qishni emas, balki umr xazinasining noyob olmosi bo'lmish farzandiga nisbatan otaning simobday titrab turgan qalbida uyg'ongan: sog'inch, qo'msash, mehr, intizorlik, yupanch, umid singari qorishiq hislarini ifoda etishni ko'zlagan. Ko'ngliga o'rmalab kirishga talpingan ma'yus tuyg'u va loyqa xayolot vasvasasi hovrini bosishni tilab subhidamdan Bedil devonini qo'liga olgan:

*Tongotar chog'ida juda sog'inib,*

*Bedil o'qir edim, chiqdi oftob.*

*Loyqa hayolotlar chashmaday tindi,*

*Pok pokiza yurak bir qatra simob* [2. 35],.

Bedilona so'zning ulug' qudratini qarangki, qalbida umid hislari kurtak yozgan shoir bir zumda gul payvandlashga kirishib ketadi. Ya'ni asrlar falsafasi lirik qahramon xayollarini to'zg'ishdan asrab, aniq maqsad sari yo'naltiradi. Shuncha mahzun xayollardan so'ng, dabdurdustdan ilohiy ne'mat — shaftolini beg'ubor kulgiga, uning tuklarini yigit mo'ylabiga, mevada subhidamda titrab turgan shabnamni bo'lajak kelin lablaridagi reza terga, totini chaqaloqning uyqudagi tamshanishiga o'xshatish, tamsillash uchun naqadar ulkan qalb, ichki butunlik, kuch va iroda barobarida shoirona iqtidor hamda salohiyat kerak bo'lganini tasavvurga sig'dirish qiyin.

Darhaqiqat, bularning bari tuyg'u kechinilgani, zalvorli fikr samimiyati, ifoda nafisligi va ekspressivlik balandligi belgilaridir.

### XULOSA

Demak, G'.G'ulom o'z fikr-tuyg'ularini kitobxonga milliy, umuminsoniy va umumbashariy ranglarda “yuqtirish”ga intildi. Shu qobiliyat tufayli “yo'lini topib” aytilgan konseptual ahamiyatga molik bo'lgan dil izhorlari, poetik jilolantirilgan jonli obrazlar birinchidan millatni, ikkinchidan jahon erksevar xalqini ezgulik yo'lida birlashtirish, odamiylik yo'sinida hamfikir qilishga xizmat qildi.

**G'.G'ulom poetik merosining kuchi va salmog'i ham o'sha gumanistik pafos bilan belgilanadi.**

Ko'rinadiki, shoir Sharq an'analari, xususan, Bedil falsafiy qarashlariga ijodiy tayanib, o'ziga xos lirik she'rlarni bitgan.

Zotan, ijodkor hamisha o'zi tasvirlayotgan voqelikka g'oyaviy-hissiy munosabat bildirgan. Shunday ekan, G'.G'ulom poetik merosi muallif emotsionalligi, ya'ni kitobxonda hamdamona tuyg'ular uyg'otishga qodir hassos shoirona qalbi bilan uzviy aloqadorlikda izohlanmog'i lozim.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Akbarov A. Shoirning hayoti. T.: Adabiyot va san'at, 1973
2. Mamajonov S. Uslub jilolari. – T.: Adabiyot va san'at, 1972
3. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille, 2015. pp. 40-43
4. Matyakubova T.R. Lyric Experience in Gafur Gulam's Poetry. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT. 2022, Vol 2 No.
5. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006
6. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – T.: Fan, 2004.
7. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 14-tom, – T.: Fan, 1979.
8. Sarimsoqov B. Lirikada badiiy tafsil // O'zbek tili va adabiyoti, 1992, № 5-6.
9. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T., 2004.
10. G'afur G'ulom va davr. -T.: Universitet, 2003.
11. G'afur G'ulom va Samarqand. Ilmiy maqolalar to'plami. – Samarqand: Universitet, 2003.
12. G'afur G'ulom - o'zbek adabiyotining bayroqdori. – Samarqand: Universitet, 2003.
13. G'afur G'ulom - shoir, yozuvchi va olim. – Farg'ona, 2003
14. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.1. – T.: Fan, 1983
15. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.2. – T.: Fan, 1984
16. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.3. – T.: Fan, 1984
17. O'zbek filologiyasining dolzarb muammolari. – Andijon, 2003
18. Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125
19. Islomjon Yakubov, Mubora Amonova. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels. Journal of Critical Reviews. 2020, № 7